



G'AYBULLAYEV Saidahmadxon Samatxonovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi
IRCICA kafedrası dotsent v.b., PhD
e-mail: saidiy4200@gmail.com

O'ZARO IXTILOFLI HADISLARNI TUSHUNISH QOIDALARI

RULES FOR UNDERSTANDING CONFLICTING HADITH'S

ПРАВИЛА ПОНИМАНИЯ ПРОТИВОРЕЧИВЫХ ХАДИСОВ

Annotatsiya: Ushbu maqolada zohiran o'zaro qarama-qarshi ko'ringan hadislarini tushunish va ulardan shar'iy hukm ishlab chiqish qoidalar o'rganilgan. Ushbu amaliyot Usul al-fiqh olimlari tomonidan mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali Qur'on va sunnat matnlari orasida zohiran qarama-qarshi ko'ringan mazmunga yechim berilgan. Mazkur qoidalar "Ta'oruz va tarjih" mavzusi bilan ma'lum va mashhur. Shar'iy matnlar yagona manbadan, ya'ni Alloh taolodan bo'lgani sabab ularning aslida qarama-qarshilik mavjud emas, ziddiyatdek ko'ringan ma'no mantiqiy tahlil, ularning maqsadi anglash, rivoyatlar tarixi o'rganishni taqozo qiladi. Shuningdek, ushbu mavzuda ma'lum bir mavzuga aloqador barcha dalillar bir o'rinda jamlab, tahlil etish masalasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: usul al-fiqh, faqih, hadis, tarjih, sunnat, nasx.

Abstract. This article explores the principles used to reconcile seemingly contradictory hadiths and derive Sharia rulings from them. These principles, developed by scholars of Usul al-Fiqh, address apparent contradictions between Quranic verses and hadiths. This field of study, known as "Ta'aruz and Tarjih," recognizes that since both the Quran and Sunnah originate from Allah, any perceived contradiction necessitates careful analysis. This involves considering the context, purpose, and historical background of the narrations. The article also emphasizes the importance of gathering and analyzing all relevant evidence related to a particular topic to reach a comprehensive understanding.

Key words: usul al-fiqh, faqih, hadith, tarjih, sunnat, nasx.

Аннотация: В данной статье рассматриваются правила понимания кажущихся противоречивыми хадисов и выработки на основе данных правил норм шариата. Эта методология была мастерски разработана учеными усуль аль-фикха, предложившими решения для устранения видимых противоречий между текстами Корана и Сунны. Эти правила известны как "Таоруз и Тарджих". Поскольку шариатские тексты имеют единый божественный источник – Всевышнего Аллаха, – в них не может быть действительных противоречий. Кажущиеся противоречия требуют тщательного логического анализа, понимания целей текстов и изучения истории их повествования. В статье также исследуется вопрос сбора и анализа всех доказательств, относящихся к определенной теме, для всестороннего и точного понимания шариатских норм.

Ключевые слова: усул ал-фикх, факих, хадисы, тарджих, насх.

KIRISH

Shar'iy matnlar yagona manbadan bo'lgani sabab ularning aslida qarama-qarshilik mavjud emas. Ammo ular o'rtasida bir qarashda ziddiyatdek ko'ringan mazmunlarni usuliy olimlar «Ta'oruz va tarjih», hadis olimlari «muxtalaful hadis» mavzusi doirasida rivoyatlar tarixini o'rganish, ulardagi maqsadlarni tushunish, mantiqiy tahlil qilish orqali aslida o'zaro muvofiq ekanini tadqiq etishgan. Natijada o'zaro ziddiyat ma'nosi bordek tuyulgan dalillarni muvofiqlashtirish qoidalari, mezonlari ishlab chiqilgan va mavzuga aloqador barcha oyat va hadislar tadqiq etilib yakuniy xulosalar olib bo'lingan.

Usul al-fiqh ilmining asosiy vazifalaridan biri Kitob (Qur'oni karim) matni va sunnat matni orasidagi, yoki sunnatlar matni orasidagi tafovutli mazmunlarni izohlash, muvofiqlashtirish va ulardan bir butunlikda yakuniy xulosa chiqarish hisoblanadi. Ushbu amaliyotga usul olimlari «Ta'oruz va tarjih – التعارض والتراجع» istilohini qo'llaydilar. «Ta'oruz – التعارض» lug'atda «qarama-qarshi bo'lish» bo'lib, istilohda «bir mas'ala bo'yicha teng darajadagi ikki dalil kelib, birining mazmuni ikkinchisiga qarama-qarshi bo'lib qolishidir». «Tarjih – التراجع» esa, lug'atda «og'ir qildirish va ustunlik berish» bo'lib, «Tarozuda og'ir qilib ber – زَنْ وَأَرْجَحْ» hadisi [1; 643] mazmunida

ham kelgan. Istilohda «tarjih – o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib qolgan dalillarning birini qo‘shimcha asoslar asosida quvvatlash»ga aytiladi. Hadis ilmida ham ayni masalaga bag‘ishlangan «Muxtalaful hadis – مختلف الحديث» bo‘limi mavjud bo‘lib, mavzuga bag‘ishlangan alohida asarlar ham ta’lif etilgan [2; 528].

ASOSIY QISM

Zohiri (tashqaridan qaraganda) bir-biriga zid kelib qolgan shar‘iy matnlarni muvofiqlashtirish yoki birini tarjih qilish (qo‘shimcha asoslar asosida quvvatli sanash) murakkab tadqiqot bo‘lib, uning natijasida chiqqan xulosaga amal qilish sahobalarning ijmosi va mantiqiy asosga ko‘ra to‘g‘ri ekanini Pazdaviy quyidagicha bayon etgan: Dalil matniga oid tarjih qoidasi – «hukmni isbot qiluvchi dalil uni isbot qilmaydigan dalildan ustundir»ga ko‘ra sahobalar Abu Sa‘id Xudriyning «Suv (g‘usl) suvdan vojib bo‘ladi» hadisini tark etib, Oisha binti Abu Bakrning «Xatna qilingan joy xatna qilingan joyga tegsa batahliq, vojib bo‘ladi» hadisiga amal qilishgan.

Dalil sanadiga oid tarjih qoidasi – «Rasul alayhissalomning oiladagi ishlari haqida ayollarining hadisi ustundir»ga ko‘ra sahobalar Abu Hurayraning «Kim junub holatida tong otirsa uning ro‘zasi ro‘za emas» hadisini tark etib, Oisha binti Abu Bakrning «Rasul alayhissalom junub holatida tong ottirganlar, so‘ng ramazon ro‘zasini tutganlar» hadisiga amal qilishgan.

Urfda ham bir masaladan ikki dalil o‘zaro zid kelib qolib, so‘ng ulardan biri ustunroq ekani bilinsa, unga amal qilinadi. Shariatda ham shunga buyurilgan Nabiy alayhissalom: «Mo‘minlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir» deganlar. Mantiqan olib qaralganda ham ikki dalildan ustuniga amal qilmasangiz, narigi kuchsiziga amal qilishga to‘g‘ri keladi. Kuchsiz dalil amalda kuchli dalildan ustun bo‘lishi aqlga to‘g‘ri kelmas [1; 449-53].

Tarjih amaliyoti mazhablar shakllanayotgan davrda tartibga solingan bo‘lib, Muhhammad ibn Idris Shofiyning «arRisola» (Maktub) asarida birinchilardan bo‘lib ayrim tarjih qoidalari keltirib o‘tilgan. Asarda Shofiyy suhbatdoshiga xitob qilar ekan shunday deydi: «Siz va biz tayanadigan asos shuki, hadislar ixtilofli bo‘lib qolsa, shunchaki biriga amal qilib keta olmaymiz, Amal qilgan hadisimiz tark etgan hadisimizdan quvvatli ekaniga

dalolat qiluvchi belgi bo‘lsagina uni boshqalarini tark etishimiz mumkin». Suhbatdosh so‘radi: «O‘sha belgi nima?». Shofe‘iy aytdi: «Ulardan biri Allohning kitobiga yaqinroq bo‘lishi kabi. Qaybiri shunday bo‘lsa, usha hujjatdir. Agar ularning mavzusi Allohning kitobida bo‘lmasa, asosi mustahkamrog‘i quvvatliroq bo‘ldi. Bu uni rivoyat qilgan roviylar sanadi mashhurligi, ilm va hifzda taniqli bo‘lishi bilan bo‘ladi. Yoki biz tayangan hadis ikki va undan ortiq yo‘llar bilan rivoyat qilingan, tark etganimiz esa bir yo‘l bilan rivoyat qilingan bo‘ladi va ko‘p yo‘l bilan kelgani haqliroqdir. Yoki biz tayangan hadis Allohning Kitobidagi yoki Rasulullohning boshqa sunnataridagi ma’noga munosibroq bo‘ladi. Yoki tayangan hadis ilm ahliga ma’lum ma’noga yaqinrog‘i, yoki qiyosga muvofiqrog‘i va sahobalarning aksari aytgan fikrga yaqinrog‘idir» [3; 284].

Imom Shofiyydan keyin Mahmud ibn Muso Hamadoniy Hozimiy (vaf. 584/1188 y.) «I’tibor fin nosix val-mansux» (Nosix-mansux mavzusiga chuqur qarash) asarida muqaddimasida «Ta’oruz va tarjih» qoidalaridan elliktasini misollar bilan izohlagab, «Tarjih usullaridan yetarlik miqdorini keltirdik. Bulardan boshqa yana ko‘plab tarjih qoidalar bor, kitob cho‘zilib ketmaslik uchun ularni zikr etmadik» degan [4; 9-22].

Hofiz Abdurrahim Iroqiy (vaf. 825/1422 y.) «an-Nukat ala Kitob ibn as-Saloh» (Ibn Salohning kitobiga qo‘shimchalar) asarida: «Tarjih ko‘rinishlari yuzdan ortiq. Imom Hozimiy ularning yelliktasini muxtasar shaklda sanagan bo‘lib, men ana shulardan boshlab zikr etaman so‘ng tartib bilan qolganlarini ham keltiraman» deb, jami bir yuz o‘nta tarjih usullarini sanagan va u ham mazkurlarda boshqa ko‘rinishlari ham mavjud ekani, ularning ba’zilari soha olimlari tomonidan e’tirof etilgan, ba’zilari esa e’tirof etilmaganini qayd qilgan [5; 250].

Muhammad ibn Ali Shavkoniy «Irshod al-Fuhul» (Zabardast olimlarning ko‘rsatmalari) asarida tarjih qoidalarining bir yuz oltmishtasini misollar orqali batafsil yoritib, so‘zini «Ushbu tarjih qoidalarining aksari mazhablar orasida turlicha e’tirof qilingan. Tarjih usullari ko‘p bo‘lib, aytib o‘tganimizdek, asosiy e’tibor faqihning nazarida qaysi bir dalil ishonchliroq, shariat maqsadlariga munosibroq bo‘lsa o‘sha quvvatliroq bo‘ladi» deb yakunlagan [2; 1115].

Hanafiy faqihlarining asarlarida ta'oruz va tarjih qoidalari tarqoq holda bayon etilgan va asosan amaliy fiqhga tatbiq qilingani sabab, ushbu mavzuda Shofiiy usuliga oid asarlar mashhur bo'lib qolgan. Biroq Faxrul-islom Pazdaviy «Usul» asarida odatiga ko'ra «Tarij qoidalari»ni o'n turga tasnif etib, tartib bilan bayon qilgan. mazkur o'n turning to'rttasi hadislarga oid, qolgani qiyosga oiddir.

Dalillar o'rtasida qarama-qarshilik kelib qolsa, hanafiy usuliga ko'ra:

1) Nasx – ya'ni, ularning tarixi o'rganiladi. Keyin sodir bo'lgani, avval sodir bo'lganini nasx (bekor) qilgan bo'ladi,

2) Tarjih – dalillar sodir bo'lish tarixi aniqlanmasa, tarjih usullari orqali biridagi ustunlik aniqlanib, unga amal qilinadi va qolgani tark etiladi,

3) Jamlash – tarjih qoidalari orqali dalillarning biridagi ustunlik aniqlanmasa, ularning ma'nolari jamlashga harakat qilinib, har ikkalasiga ham amal qilinadi.

4) Jamlash imkoniyati topilmasa, har ikkala dalil tark etilib, ulardan boshqalariga amal qilinadi.

Mutakallimlar usuliga ko'ra, avvalo dalillar ma'nosini jamlash, so'ng nasxni o'rganish, so'ng tarjih usullariga o'tish, so'ng tavaqquf qilinadi (masala ochiq qoladi). Ushbu yondashuv molikiy, Shofiiy va hanbaliy mazhabi vakillarining qarashidir [6; 11].

Mutakallimlar dalillarni nasx va tarjih qilishdan oldin ularni jamlash lozimligini usuliy qoidasi – «الاعمال اولي من الاهمال» (Dalillarning birini e'tiborsiz qoldirishdan ko'ra barchasiga amal qilish afzal) bilan dalillashgan. Hadislar ma'nosini jamlashda har ikkalasiga ham amal qilish, tarjihda esa birini tark etish borligini ta'kidlashgan. Pazdaviy hanafiylarning tarjih usulini muqaddam qilish usullarini shunday izohlagan: «Tarjihni jamlashdan oldin keltirish bu sog'lom tafakkur taqozosidir. Xabarning biri ikkinchisidan ustun ekanini bilib turib ularni teng ko'rish aql taqozosiga to'g'ri kelmas. Ammo «Dalillarning birini e'tiborsiz qoldirishdan ko'ra barchasiga amal qilish afzal» qoidasiga kelsak, mavzu uning o'rni emas. Chunki rojih (ustun bo'lgan) xabarga marjuh (ustun bo'lmagan) xabar muqobil, teng emas. Shunday ekan marjuh xabarni tark etish bir dalilni e'tiborsiz qoldirish hisoblanmaydi» deydi [7; 196].

Nasx lug'atda «o'chirish», «bekor qilish» ma'nosini bildirib, islohdagi «oldin kelgan

dalil hukmini keyin kelgan dalil bilan bekor qilish»ga aytiladi. Oyat va hadislar faqatgina Nabiylar alayhissalom hayotlik davlaridagina nasx bo'lishi mumkin. Shar'iy dalillarni nasx bo'lgani qo'shimcha belgilar bilan bilinadi va bunday qo'shimchalar «nasxni tanituvchilar» deya nomlanib, ular to'rtta:

Birinchisi Rasul alayhissalom bevosita bir hukmni nasx bo'lganini ochiq aytishlari. Jumladan, U zotning «Men sizlarni qabrlar ziyoratidan qaytargan edim. Endi, ularni ziyorat qilaveringlar!» degan so'zlari kabi.

Ikkinchisi sahobaning so'zidan bilinishi. Jumladan, Jobir raziyallohu anhu aytadi: Rasululloh sallallohu alayhi vasallomdan sodir bo'lgan ikki ishning oxirigisi olov tekkan narsa yegandan so'ng tahorat qilmaslik bo'lgan».

Uchinchisi hadislarning sodir bo'lgan tarixini o'rganish orqali. Jumladan, Nabiylar alayhissalomning: «Qon oluvchining ham qon oldiruvchini ham ro'zasi ochildi» degan hadislari hijratning sakkizinchi yili va Ibn Abbos razihullohu anhuning «Nabiylar sallallohu alayhi vasallomdan e'homda ro'zador hollarida qon oldirdilar» hadisi hijratning o'ninchi yili bo'lgani aniqlangan.

To'rtinchisi hadisning mansux ekani undagi ma'noning xilofiga ijmo' qilingani bilan bilinadi.

Nasx belgilari topilmasa, faqih ulardan biridagi «rojih» (ustun)lik tomonini aniqlashga harakat qiladi. Pazdaviy hadislarga oid «حي جرثول» – tarjih» usullarini: sanad e'tiboridan, matni e'tiboridan, dalolat e'tiboridan, tashqi belgilar bilan tarjih qilish kabi to'rt turda bayon qilgan. Olimning tarjihning unsurlari uchta: «Murajjih» – ikki dalildan biriga ustunlik beruvchi asos, «rojih» – murajjih orqali «ustuvorlikka ega bo'lgan» dalil, «marjuh» – ustuvorlikka erishmagan dalil [1; 632].

Hanafiy faqihi Faxrul-islom Pazdaviy sanad e'tiboridan tarjih qilishning o'n beshta ko'rinishini keltirgan va sanaddagi roviylar faqih bo'lishi, yoki boshqalardan faqihroq bo'lishi eng ustun jihatligini ta'kidlagan. Farqli ravishda muhaddislar va Shofiiylik usulida sanadi oliy (kam sonli kishilar qatnashgan) hadis ustun sanaladi [2; 1129]. Usul al-fiqh asalarida ushbu farqga alohida e'tibor qaratishgan. Bu borada Abdurrahmon Avzo'iy (707-774) va Abu Hanifa o'rtasida bo'lib o'tgan bahs mashhur bo'lib, bir kuni ular «Dorul-hannotin» mahallasida uchrashib qolishganda Avzo'iy: «Nima sabab sizlar rukuga borish va undan qaytishdagi

takbirda qo'llarizni ko'tarmaysizlar» dedi. Shunda Abu Hanifa: «Sababi bu masalada Rasulullohdan biror sahih hadis kelmagan» deb javob bergan. Avzo'iy: «Qanaqasiga sahi hadis kelmasligi mumkin, axir menga Zuhriy, unga Solim, unga otasi (Ibn Umar): «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam namoz boshlaganda va rukuga borish hamda undan qaytishda qo'llarini ko'taradilar» deb hadis aytganku?!» deydi. Shunda Abu Hanifa: «Bizga Hammod Ibrohimdan, u Alqamadan, u Asvaddan, u Abdulloh ibn Mas'uddan: «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Namozda faqatgina avvalgi takbirda qo'llarini ko'tarar va bu ishni qayta takror etmasdilar» deb hadis aytgan» deydi. Avzo'iy: «Sizga Zuhriydan, u Solimdan, u otasidan, u Nabiy alayhissalomdan hadis aytdi desam, menga «Bizga Hammod Ibrohimdan...hadis aytdi deb o'tiripsiz» dedi. Shunda Abu Hanifa: «Hammod ibn Abu Sulaymon Zuhriydan faqihroq, Ibrohim Solimdan faqihroq, Alqama esa Ibn Umar raziyallohu anhudan fiqhda kam emas, agar Ibn Umarning sahobalik darajalari bo'lsa, Asvad ko'p jihatdan fazilati bisyordir va Abudullohga kelsa, endi u Abudullohda!» dedi. Avzo'iy javob berilmay sukut qilib qoldi. Imom Shofiiyning ustozlari Vaki' ibn Jarroh (746-812) ham: «Faqihlar qatnashgan sanad shayxlar qatnashgan sanaddan afzalroqdir» deydi [8; 534].

Sanad oliy bo'lishi roviyning faqih bo'lishidan keyingi darajadagi e'tiborli tarjih qoidasi bo'lib, oradagi vositachi roviylar kamligi sabab hadis matnida xato bo'lish e'timoli ham kamayadi. Shuningdek, hanafiylardan imom Muhammad, Imom Karxiydan bir rivoyatda, Abdulloh Jurjoniy, Mahmud Usmandiy va Jamoliddin Zayla'iy kabilar har bir tabaqada roviylar ko'p ishtirok etgani bilan ham hadisni tarjih qilishgan, biroq Hanafiy usulidagi ustun qarash hadis modomiki mashhur darajasiga yetmagan bo'lsa roviylarning ko'pligi bilan rojih sanalmaydi, deydi Pazdaviy [9; 207].

Uy ichi va ayollarga xos masalalarda ayollarning rivoyati erkaklarnikidan ustun sanaladi. Shuningdek, roviyning Rasululloh suhbatlarida ko'p bo'lgani, u kishi bilan ko'p yillar hamroh bo'lib yurgani ham uning hadisiga tarjih bo'ladi. Shunga ko'ra Madinada bir haftacha yurgan A'robiyning Rasulullohning namozda ominni jahriy aytganlari haqidagi hadisidan Abdulloh ibn Mas'udning ominni maxfiy aytganlari haqidagi hadis tarjih qilingan.

Sanadga oid tarjih qoidalarini Muhammad Shavkoniy «Irshod al-Fuhul» asarida tartib bilan qirq iktasini keltirgan va qirq birinchi o'rinda «Sahihaynda kelgan hadislar ulardan boshqa hadis manbalarida kelganlaridan ustun sanalib, ularga amal qilinadi» usulini keltirgan [2; 1132]. E'tiborga molik jihati hozirgi kunda hadislariga amal qilish masalasida mazkur asosni birinchi o'ringa qo'yishda undan avvalroq qo'llash kerak bo'lgan qirqa asosni e'tiborsiz qoldirish va bu bilan asrlar davomida muhaddis va usuliy olimlar amal qilgan tarjih asoslarini tark etish xatari mavjud.

Pazdaviy xabarlar matnidagi tarjih usullaridan eng muhimi sifatida «Biror hukmni sobit qiluvchi hadis uni inkor qilgan hadisdan ustunroq bo'ladi» qoidasini keltirgan va aksar ulamolar mazkur asosni etirof etib, «hukmni sobit qiluvchi hadisda qo'shicha ilm bordir» deyishgani qo'shimcha qilingan. Jumladan, Bilol raziyallohu anhudan: «Nabiy alayhissalom Qa'baga kirdilar va uning ichida namoz o'qidilar» degan rivoyati Usoma raziyallohu anhudan: «Nabiy alayhissalom Baytulloh ichida namoz o'qimadilar» degan xabaridan ustunlik qiladi. Muallif o'ndan ortiq muhim tarjih qoidalari bayon etgan va umumiy qoida sifatida matndagi tarjih hukmga ochiqroq, aniqroq dalolat qilish bilan bo'lishini qayd etgan. Shunga ko'ra om xosdan rojih sanaladi agar ular o'rtasini jamlash imkoni bo'lmasa, agar imkoni bo'lsa ular jamlanadi: xosga o'z o'rnida amal qilinadi, qolgan o'rinlarda omga amal qilinadi. Shuningdek, bir qismi xoslanmagan om hukm bir qismi xoslangan om hukmdan ustun sanaladi. Chunki hanafiylar usulida xoslanmagan omning dalolati qat'iy, xoslangan omning dalolati esa zonniydir [10; 884].

Ehtimoli kamroq lafz ehtimoli ko'proq lafzdan rojih. Masalan ikki ma'noga mushtarak lafz, ikkidan ko'proq ma'noga mushtarak lafzda rojihroq. Chunki unda tanlov kam va ikki ma'nodan birini maqsadga yaqinligini bilish e'timoli baland. Haqiqiy ma'nosiga yaqinroq ko'rinishda qilingan majoz, uzoqroq ko'rinishda qilingan majozdan rojih. Chunki uzoq majozdan ko'ra yaqin majoz tushunarliroq. Bog'liqligi va isti'moli mashhurroq majoz – lug'atda, yoki shar'an, yoki urfda ahamiyati yo'q – boshqasidan rojihroq, haqiqiy ma'nosiga yaqin bo'lganidan.

Harom ham ehtiyoj jihatidan vojib, mustahab, mubohdan rojihdir. Chunki harom zararni daf etish uchun, vojib, mustahab, mubohlar esa

manfaatni jalb qilish uchun. Shariatni zararni daf etishga bo'lgan buyrug'i manfaatni jalb qilishga bo'lgan amridan ta'kidliroqdir. Shuningdek, vojib mustahab, mubohdan, mustahab mubohdan, makruh mustahabdan va barchasi mubohdan rojihdir. Jazolarni bekor qiluvchi xabar uni sobit qiluvchi xabardan rojih. Chunki birinchisida yengillik, osonlik bordir. Sabab va illat zikr qilingan xabar boshqasidan rojihdir. Chunki sabab va illatning zikr etilishi unga ahamiyat berilganini bildiradi.

Shariat asllaridan biriga muvofiq bo'lgan hadis unday bo'lmagan hadisdan rojih. Jassos: «Xabarlar o'zaro qarama-qarshi kelib qolsa, shariat usullariga mos bo'lgani amal qilishga munosibroqdir» deydi [11; 437]. Shunindek, hanafiy usuliga ko'ra, qiyosga muvofiqroq hadis qiyosga muvofiq kelmagan hadisdan rojihroqdir. Xulafoi roshidiynlarning barchasi yoki biri amal qilgan xabar birortalari amal qilmaganidan rojih. Chunki Nabiy alayhissalom ularga ergashishga buyurganlar, ularning amal qilishida ushbu hukm amalda qolganiga ishora bor, va ular Qur'onni va vahyni biluvchiroqdir.

XULOSA

Tashqi omillar sabab tarjix qilish usullari esa rivoyatda xukmga ochiq ishora bilan kelgani misol keltirish va o'xshatishga dalolat qilib kelganidan muqaddam qilinadi, Salaf ulamolarining ko'pchiligi amal qilgan xukm unga qarama-qarshi kelganidan muqaddam qo'yiladi, chunki ko'pchilik tarafida xaqiqatni topish va xaq ular bilan ekanligi e'timoli yuqoridir. Lekin bunda e'tibor qilinadigan alohida jihat bor bo'lib, u ko'pchilikning bajargan amali va so'zini haq ekanligiga dalolat qiladigan dalil yo'q. Gohida haq ozchilik tarafida ham bo'lishi ham mumkin. Alloh taolo O'zining kitobida ko'p misollarda ozchilikni maqtagan va ularni haq ustida ekanlarini zikr etgan. To'rt xalifaning amaliga muvofiq kelgan rivoyat boshqasidan muqaddam qilinadi, Qur'oni karimning zohiriga muvofiq kelib unga o'xshash jihati bo'lgani muqaddam qilinadi, Rivoyat qiluvchi o'zining so'zi yoki amali bilan tushuntirib, tafsir qilib bergani muqaddam qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Faxrul-islom Pazdaviy. Usul al-Pazdaviy // nashrga tayyorlovchi: Said Bektosh. – Madina: Dor as-siroj, 2016. – B. 643, – B. 449-453, – B. 632.
2. Muhammad ibn Ali Shavkoniy. Irshodul fuhul. – ar-Riyod: Dor al-fazila, 2017. – B. 528, – B. 1115, – B. 1129, – B. 1132.
3. Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy. Ar-Risola. – Qohira: Matba'a Mustafo Halabi va avloduhu, 1940. – B. 284.
4. Mahmud ibn Muso Hamadoniy. I'tibor fin nosix val-mansux. – Haydarobod: Dor al-ma'orif al-usmoniya, 1359/1940. – B. 9-22.
5. Hofiz ibn Hajar Asqaloniy. an-Nukat ala Kitob ibn as-Saloh va Nukat al-Iroqiy // Nashrga tayrlagan: Mohir Yasina al-Fahl. – ar-Riyod: Dor al-Mayamin, 2013. – B. 245-250.
6. Samatkhonovich, G. S., Ashurovich, K. M., & Murodjon Ugli, A. M. M. (2021). The Entry And Development Of The Science" Usul Al-Fiqh" In Mawarounnahr. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).
7. Laknaviy. Al-Ajviba al-Fozila. - Karachi: Maktaba Mir Mahmud, 1988. – B. 196.
8. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosa fi usulil hadis. – Karachi: maktaba as-sa'oda, 2018. – B. 534.
9. Abdulaziz Buxoriy. Kashful asror. – Bayrut. Dor kutub al-ilmiyya, 1997. – J. II. – B. 207.
10. Samatkhonovich, G. S. (2021). Comments on fakhrol islam al-pazdavi's" usul". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 883-887.
11. Abu Bakr Jassos. Sharh Muxtasar at-Tahoviy. – Baryut: Dor ihya at-turos al-arabiy, 1998. – J. II. – B. 437.